

## ZAMONAVIY SUN'iy INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING INSONIYATGA TA'SIRI

**Qo'choqorov Ma'murjon Abdug'affor o'g'li**

---

### ARTICLE INFO.

---

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, IT, texnologiya, google, Microsoft, chatGPT, bing, bard, copy.ai, tome.app, midjourney.

---

### Annotatsiya

---

Ushbu maqolada bugungi kundagi zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari, ularning bir-biridan farqi va ishlash usullari shuningdek insoniyatga ta'siri yoritib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

---


Bugungi kunda KO'pchilik robotlar deganda ko'z oldiga insonlardek gaplasha oladigan, ularning o'rniga barcha vazifalarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Lekin bu nisbatab kengroq tushuncha. Aslisda mobil qurilmalardagi mavjud bir nechta dasturlar: google-tarjimon, lug'atlar, turli xil o'yinlar va boshqalar ham sun'iy intellektga misol bo'la oladi. Faqat ularning qamrovi kichikroq bo'lib, ma'lum bir yo'nalishdagi sohalargagina yordam beradi.

Sun'iy intellekt odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi.

Bugungi kunga kelib dunyoning gegant IT kompaniyalari turli xil vazifalarni bajarishga mo'ljallangan sun'iy intellekt dasturlarini taqdim qilishyapmoqda.


Quyida ushbu sun'iy intellekt dasturlar haqida ma'lumot berib o'tamiz:

**Bing AI** - Microsoft kompaniyasi tomonidan yaratilgan aqli qidiruv tizimi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari qidiruv tizimiga berilgan ma'lumotlarni foydalanuvchiga mos keladigan tartibda taqdim etish va foydalanuvchining talablariga mos ravishda javob berishdan iboratdir. Bing qidiruv tizimi odatda internetda mayjud bo'lgan ma'lumotlarni qidiradi va ularni foydalanuvchiga taqdim etadi. Bing qidiruv tizimiga berilgan so'rovlar maxsus algoritmlar va aqli tizimlar yordamida foydalanuvchining talablariga mos javob berishga harakat qiladi. Ya'ni bu tizimning afzalligi shundan iboratki, berilgan so'rovg'a javob berishdan tashqari ushbu javoblarning internet tarmog'ining qaysi manzillaridan olganligi haqida ham ma'lumot beradi.



### 1-rasm. Microsoft Bing AI sahifasi

**Copy AI** – bu kreativ blogpost marketing matnlarini yozish uchun ishlataladigan dasturdir. Bu dastur foydalanuvchining matnlar yozish va tahrirlash jarayonlarini avtomatlashtiradi. Dasturda ko‘plab funksiyalar mavjud, masalan, foydalanuvchi o‘zining matnlariga mos keladigan kalit so‘zlar, turli xil shakllar va jummalarni qidirishi mumkin.




### 2-rasm. Copy AI sahifasi

**Midjourney** - bu matnlarni shaklidagi ma’lumotlarni tasvirga generatsiya qilib beruvchi sun’iy intellekt dasturi va xizmati bo‘lib, AQSHning San-Frantsisko shtatida joylashgan Midjourney mustaqil tadqiqot laboratoriysi tomonidan yaratilgan. Bugungi kundagi internetni egallab olgan mashhur sun’iy intellekt tasvir generatorilaridan biridir. Bu tizimning ishslash tartibi shundan iboratki, foydalanuchi tizimga tasavvuridagi ma’lumotlarni kiritish orqali bir nechta daqiqalarda tasvir hosil qilinadi.



### 3-rasm. Midjourney logotipi


Midjourney dasturining raqobatchisi bo‘lmish OpenAI kompaniyasining DALL-E 2 sun’iy intellekt dasturlari ulkan muvaffaqiyatidan so‘ng, ko‘philik oddiy foydalanuvchilar ham o‘zlarini zamonaviy Pikassoga aylanishiga intilishayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni DALL-E dasturi ham Midjourney dasturi kabi kiritilgan matnlarni tasvir shakliga aylantirish imkonini beruvchi sun’iy intellekt darsturdir. Bu yerda kiritilgan matn mazmuni qanchalik aniqlik bilan kiritilsa, hosil bo‘ladigan tasvir ham shunchalik aniq va sifatli kutilgandek namoyon bo‘ladi.



#### 4-rasm. Midjourney sun’iy intellekt dasturi orqali yaratilgan tasvir

**ChatGPT** – 2022 yilning noyabr oyida “OpenAI” kompaniyasi ChatGPT universal chat-botini taqdim etdi. Dastlab, ChatGPT-ning faqat bitta versiyasi mavjud edi, keyin kompaniya qo‘shimcha funksiyalarga ega bo‘lgan yuqori darajadagi "ChatGPT Plus" ni ishga tushirdi.


Bugungi kunda ChatGPT orqali sher yozish, suhbat qurish, tarjimonlik qilish, dasturchilar dasturdagi turli xildagi xatoliklarni topishi va boshqa ko‘plab foydali ishlarni bajarish mumkin.



#### 5-rasm. ChatGPT sahifasi


**Bard**. Google kompaniyasi ChatGPT ga raqobatchi sifatida BardAI sun’iy intellekt asosida ishlaydigan chatbotni ishga tushirdi.

Bard AI orqali foydalanuchilar turli xildagi matnlar yozish, savollarga javob berish, ko‘plab tillarni tarjima qilish, turli kontentlar yozishlari mumkin.



### 6-rasm. Bard AI sahifasi

**Tome.app.** Bu sun’iy intellekt dasturi o‘quvchi va o‘qituvchilarga taqdimot tayyorlashda yordan beradi. Bunda foydalanuvchi o‘ziga kerak bo‘lgan mavzuni kiritiladi va qisqa vaqt taqdimot tayyor bo‘ladi.



### 7-rasm. Tome.app sahifasi

Sun’iy intellekt haqidagi bahs munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hozirgacha bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. Ba’zilar ularning ommalashib odamlar o‘rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa sun’iy intellektga ijobjiy munosabatda bo‘lish kerakligini aytishmoqda. Bu bo‘yicha mashhur insonlar va milliarderlar o‘zlarining fikrlarini bildirishmoqda.

Hatto IT sohasidagi milliarderlar orasida ham turli qarashlar mavjud.

Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask sun’iy intellektning butun boshli sivilizatsiyani barbod qilib yuborishi mumkinligini aytib o‘tgan.

Maskning fikricha, “Sun’iy intellekt insoniyat sivilizatssiyasi uchun asosiy xavfdir. Sun’iy intellekt mehnat bilan bog‘liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun’iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko‘rmay qolishlari mumkin”.

Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to‘xtalib o‘tadi. “Bir necha o‘n yildan so‘ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, sun’iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo‘shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman”, – deb aytib o‘tgan Bill Geyts.

Nima bo‘lishdan qat’iy nazar biz bugungi kundagi zamonaviy texnologiyalarni o‘z vaqtida o‘rganib,

o‘zlashtirib borishimiz zarur. Shundagina bu texnologiyalarning insoniyatga bo‘ladigan salbiy ta’sirini kamatirishimiz mumkin bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusova M. A NEW STAGE OF INTRODUCING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN SOCIETY //Review of law sciences. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 207-210.
2. E.Mannopova, M.Yunusova Digital Transformation in Uzbekistan and Strategies of Successful Transition to Digital Economy // Vol. 2 No. 2 (2023): Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – C. 207-212.
3. Yunusova M. S., Jurayev J. B. U. Electronic textbooks: structure and content integration //current research journal of pedagogics. – 2021. – T. 2. – №. 09. – C. 123-129.
4. Muxiddinov Muxriddin Nuriddin O‘G’Li (2022). SUN’IY INTELLEKT VA UNING IMKONIYATLARI. Science and innovation, 1 (A2), 11-13. Doi: 10.5281/zenodo.6547606
5. Structure And Content Integration E-Textbook
6. YM Sabirovna - Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2023, 2023/1/2, 4143-4148
7. O.Bozorov. Sun’iy intellekt qaysi joylarda ishlatilmoqda “Journal of universal science research”
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-uning-insoniyat-faoliyatida-tutgan-o-rni/viewer>